

RESPUBLKAMIZDA YETISHTIRILADIGAN BUG'DOY NAVLARI VA ULARNING TASNIFI

SOLIXONOV ZAXRIDDIN SADRIDDIN O'G'LI

Toshkent davlat agrar universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7233398>

Kalit so'zlar: Bug'doy, don, sqlash, qayta ishlash, sifat, oziq-ovqat.

Annotatsiya: Bug'doy dunyodagi eng asosiy donli ekinlardan biri hisoblanadi. Bug'doydan oziq ekini sifatida foydalanib uning donidan yorma olinadi, unidan non va boshqa non mahsulotlar tayyorlanadi Non mahsulotlari xush ta'mligi va sifatligi bilan ajralib turadi va yetarli kaloriyaga ega. Inson o'zining xayotiy faoliyati uchun kerak bo'ladigan energiyaning 20% ni bug'doy hisobiga to'ldiradi

Bahorgi bug'doy asosiy oziq-ovqat mahsuloti hisoblanadi. Bahorgi bug'doy donida oqsil miqdori eng yuqori bo'ladi. Donidan yanchilgan un tortilishi va yopilgan noni o'ta xushta'm, to'yimliliigi bilan ajralib turadi. Chunki tarkibida oqsil 16-18 foizgacha yetadi.

Qattiq bug'doy odatda bahorgi bo'ladi va donidan a'lo sifatli oq un va yorma olinadi. Bahorgi bug'doy unidan yuqori sifatli oq non yopiladi va qandolat mahsulotlari tayyorlanadi. Yosh bolalar uchun to'yimli oziq-ovqatlar, makaron va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi. Bahorgi bug'doy unidan boshqa unlarni yaxshilash maqsadida foydalaniladi. Ayniqsa, lalmi yerlarda o'sgan bahorgi bug'doydan azaldan o'ta sifatli, yengil bo'rsildoq nonlar olingan.[6]

Mamlakatimizda sug'oriladigan yerlarda va lalmi maydonlarga ekiladigan bahorgi bug'doy ekin maydonlari ko'p emas. Bahorgi bug'doyning ko'pchilik hollarda kuzgi bug'doyga qaraganda hosildorligi kamroq bo'ladi. Hosildorlik tuproq iqlim sharoitiga, navga va agrotexnik tadbirlarga bog'liqdir.

KRASNODAR- 99 NAVI: O'rtapishar kuzgi nav hisoblanib, bo'yi 90 – 95 sm. Boshog'i qiltiqsiz, o'rtacha kattalikda, silindrsimon, boshog'i zich, uzunligi 8 – 9 sm va oq rangda. Doni qizil, tuxumsimon, yirik, don choki chuqur emas, 1000 dona don vazni 40 – 41gramm va donining naturasi 750 – 770 gr/l. Yaxshi tuplaydi,

sho'rga o'rtacha chidamli bo'lganligi uchun sho'r tuproqlarda ham yaxshi hosil beradi.

TANYA NAVI: Ertapishar nav hisoblanib, bo'yi 95-100 sm. Boshog'i qiltiksiz, uzunligi 8 – 10 sm va oq rangda. Doni qizil, yirik, tuxumsimon shaklda, 1000 dona don vazni 42 – 44 gramm va naturasi 795 – 810 gr/l. Yaxshi tuplaydi, yotib qolishga chidamli. Boshog'i pishganda egilib qoladi va donni to'kilib ketmaydi.

Viloyat sharoitidagi eng yuqori hosildorlik 77 – 80 s/ga. Dala sharoitida zang kasalliklaridan sarik zang kasalliklariga chidamli va qo'ng'ir zang, septorioz kasalliklariga o'rtacha chidamlidir. Sovuqqa juda chidamli nav.

Ekish muddati 15 sentyabrdan – 30 oktyabrgacha eng maqbul hisoblanadi. Ekish ertagi va o'rtagi muddatlarda 15 sentyabrdan – 15 oktyabrgacha 5,0 – 5,5 mln/ga, kechki muddatda 20 oktyabrdan – 5 noyabrgacha 5,5- 6,0 mln/ga unuvchan urug' hisobidan ekish tavsiya etiladi.

ASR NAVI: Kroshka va Oruval navlarini duragaylab, 2 marta yakka tanlash yo'li bilan yaratilgan. O'rtapishar nav hisoblanib, bo'yi 95- 105 sm. Boshog'i qiltiqsiz, silindrsimon, yirik, uzunligi 8- 10 sm va oq rangda. Doni yirik qizil, shakli cho'ziq, 1000 dona don vazni 42- 43 gramm. Donining naturasi 790 – 830 gr/l. Boshog'i pishganda egilib qoladi.

Viloyat sharoitida eng yuqori hosildorlik 60 - 62ts/ga. Zang kasalliklaridan sariq zang, qo'ng'ir zang, un shudring kasalliklariga o'rtacha chidamlidir. Ekish muddati 25 sentyabrdan – 30 oktyabrgacha eng maqbul hisoblanadi. Ekish o'rta muddatlarda 25 sentyabrdan – 15 oktyabrgacha 4,5 – 5,0 mln/ga, kechki muddatda 20 oktyabrdan – 30 oktyabrgacha 5,0- 5,5 mln/ga unuvchan urug' hisobidan ekish tavsiya etiladi. Oziqlantirish kuzda unib chiqqandan so'ng – 100 kg/ga, erta bahorda g'allaning tuplash davrida – 200 kg/ga, naychalash davrida gektariga – 200 kg/ga va boshoqlash- gullash davri (1- 20 aprel) da gektariga 100 kg/ga hisobidan oziqlantiriladi.

DO'STLIK NAVI: Sug'oriladigan yerlarda g'alla va dukkakli o'simliklar ITI G'allaorol filialida (Vodina – 9 navidan ko'p marta yakka tanlash yo'li bilan) yaratilgan va 2007 yilda rayonlashtirilgan, duvarak navdir.

Bu nav o'rtapishar nav hisoblanib, bo'yi 100- 110 sm. Boshog'i qiltiqli, uzunligi 12- 14 sm va oq rangda (eritrospermum tur xiliga mansub yumshoq bug'doy). Doni qizil, 1000 dona don vazni 41- 43 gramm, donida kleykovina miqdori 26- 28%, yaltiroqligi 65- 68%. Donining naturasi 770 - 780gr/l. Viloyatimiz sharoitida unumdorligi past va o'rtacha hamda sho'rlangan tuproqlarda ham yaxshi tuplashi sababli begona o'tli maydonlarda begona o'tning ko'payishiga yo'l qo'ymaydi va yaxshi hosil beradi.

Viloyat sharoitida eng yuqori hosildorlik 65- 80ts/ga. Zang kasalliklaridan sariq zang kasalligiga chidamli va qo'g'ir zang kasalligiga o'rtacha hamda qurg'oqchilikka, issiqqa va sho'rga chidamlidir. Tinim davridan havo harorati +5,8 + 6,0S daraja bo'lganda vegetatsiyasini tez tiklaydi.

Bu navni 25 sentyabrdan – 5 noyabrgacha ekish mumkin. Ekish me'yorlari erta muddatlarda sentyabr oyida 4,5 mln/ga, oktyabr oyida 5,0 mln/ga, noyabr oyida 5,5mln/ga unuvchan urug' hisobidan ekish tavsiya etiladi. Oziklantirish kuzda unib chiqqandan so'ng – 100 kg/ga, erta bahorda g'allaning tuplash davrida – 200 kg/ga, naychalash davrida gektariga – 150 kg/ga hisobidan oziklantiriladi.

Boshoqli don ekinlari navlarini hududlarning tuproq-iqlim sharoitini hisobga olgan holda joylashtirish, maqbul muddatlarda ekish va parvarishlash, buning uchun zarur bo'lgan moddiy-texnika resurslarini o'z vaqtida va to'liq yetkazib berish, boshoqli don hosildorligini hamda fermer xo'jaliklari va g'allachilik klasterlarining manfaatdorligini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

Dehqonchilikda bahorgi bug'doyning ikki turi keng tarqalgan: yumshoq (*Triticum aestivum* L) bug'doy turi sifatli un beradi, tarkibida oqsil miqdori 14-15 foiz, kuchli bug'doy deb ataluvchi navlar va qattiq bug'doy (*Triticum durum* L) tarkibida oqsil miqdori o'ta yuqori. Bahorgi bug'doylar qisqa o'suv davrida

rivojlangani uchun ham kuzgi bug'doyga nisbatan kamroq hosil beradi. Bahorgi bug'doy yuqori haroratga ham chidamlidir. Lekin gullashi va to'lishi paytida havo harorati o'ta yuqori yoki garmsellar bo'lishi donning yengil, puch bo'lishiga olib keladi. Qattiq bug'doyning ildizlari yumshoq bug'doy ildizlariga qaraganda kamroq rivojlangan, shuning uchun ham ular nam kam bo'lishiga chidamsizroq, ammo havo issiq bo'lsa yaxshi rivojlanadi. Dastlabki rivojlanish fazalari sekin o'tadi. Nay tortish o'sishi tezlashadi.